

1.2. AMALIY MASHG'ULOT. HAYOTNING TUZILISH DARAJALARINI MODELLASHTIRISH

Maqsad: modellashtirish orqali hayotning tuzilish darajalari mohiyatini tushunish, komponentlari va ularga xos jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Organik olam tuzilishi jihatidan turli murakkablik darajasiga ega biologik sistemalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Biologik sistema muayyan funksiyani bajaradigan, rivojlanish, o'z-o'zini barpo etish va atrof-muhitga moslashish qobiliyatiga ega bo'lgan o'zaro bir-biri bilan bog'liq tarkibiy qismlarni o'zida birlashtiradi. O'simlik yoki hayvon organizmi hujayra, to'qima, organ va organlar sistemadan tashkil topgan biologik sistema. Hujayra, to'qima va organlar o'zaro aloqada bo'lib, organizmning yaxlit sistema sifatida ko'payishi va tashqi muhitga moslanishini ta'minlaydi. Bu organizm darajasidagi biologik sistema sanaladi.

Hayotning har bir tuzilish darajasi biologik sistemalaridir.

Bizga kerak: rangli qalam, oq qog'oz.

Ishning borishi

Kichik guruhlar uchun topshiriqlar:

1. Hayotning tuzilish darajalari mohiyatini guruhda muhokama qiling.
2. Hayotning tuzilish darajalari komponentlarini aniqlang.
3. Hayotning tuzilish darajalariga xos jarayonlarni ayting.
4. Hayotning tuzilish darajalari komponentlari va ularga xos jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni guruhda muhokama qiling.
5. Hayotning tuzilish darajalarini iyerarxiya tamoyiliga ko'ra biologik sistemalar sifatida o'rganishning ahamiyati haqida xulosa chiqaring.
6. Hayot tuzilish darajalari tarkibiy qismlari – komponentlari hamda ularda sodir bo'ladigan jarayonlarni sxemada modellashtiring. Namuna sifatida quyidagi sxemadan foydalaning.

